

SUD QARORLARINI TARJIMA QILISHDA TERMINOLOGIK YONDASHUV

Babanazarova Dilafuz

TOSHDO‘TAU

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi

dilyabotirovna5750@gmail.com

97-775-57-50

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sud qarorlari tarjimasi yuridik tarjimaning alohida turi ekanligi va unda eng ko‘p uchraydigan terminologik xatolar ko‘rib chiqilib, tahlil qilinadi va ularni bartaraf etishning bir neshta usullari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sud qarorlari, yuridik tarjima, terminologik xatolar, huquqiy atamalar, ekvivalentlik.*

Abstract: *This article explains that the translation of judgment is considered as a separate type of legal translation. The most common terminological mistakes are clarified and analyzed, and several methods for their elimination are highlighted.*

Keywords: *Judgments, legal translation, terminological mistakes, legal terms, equivalence.*

Kirish

Bilamizki tarjimaning bir necha xil turlari mavjud. Xususan badiiy tarjima eng ko‘p va keng tarqalgan tarjima turidir. Ammo adabiyot va shunga oid sohalardan tashqari boshqa sohaviy ilmiy-texnik tarjimalarga ham bir nazar tashlasak. Bugungi kunda aynan ilmiy-sohaviy tarjimalarga, masalan meditsina, kimyo-texnologiya, psixologiya, moliya va yuridik sohalardagi tarjimalarga ham talab kengayib bormoqda. Yurtimizda Jaxon Xalqaro Standartlari bilan tenglashish maqsadida xalqaro huquqiy aloqalar, shartnomalar va qonuniy hujjatlarning almashinuvi kengayib bormoqda. Bu esa yuridik tarjimaga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Yuridik matnlar va hujjatlar o‘ziga xos terminologiya va qat’iy huquqiy mazmunga ega bo‘lib, ularni tarjima qilish jarayoni yuqori mas’uliyatni talab etadi. Shu bilan birgalikda sud qarorlarining tarjimasi ham o‘z o‘rnida muhim ahamiyat kasb etadi. Sud qarorlari yuridik hujjatlarning eng rasmiy va har taraflama aniqlik talab etuvchi turi hisoblanadi. Bitta notog‘ri tarjima butun sud natijasini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Xalqaro sudlarda (masalan, BMT, Yevropa inson huquqlari sudi, arbitraj sudlari) ko‘p tillilik mavjud. Ya’ni, sud jarayoni bir vaqtda bir nechta tillarda olib boriladi. Shu sababli ham sud qarorlari, umuman sud jarayonida tarjima sifati juda muhimdir. Ammo bu

jarayonda yuridik terminlarning notog‘ri tarjima qilinishi, aynan mos ekvivalentining topilmasligi yoki so‘zma-so‘z tarjimaga berilishi kabi xatolar uchraydi.

Tarjima jarayonida so‘z yoki atamaning grammatik shakli emas, balki uning huquqiy tizimdagi o‘rni, ma‘no doirasi va funksional yuklamasi muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shuning uchun so‘zma-so‘z har doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Sud qarorlarini tarjima qilishda shunchaki ikki tilli lug‘atlardan, terminologik lug‘atlardan foydalanish emas, balki har ikkala tilning huquqiy an‘analaridan, har ikki millatning sud tizimi va tuzilmasidan kelib chiqqan holda tarjima qilish o‘rinlidir.

Asosiy qism

Sud qarorlari – bu rasmiy huquqiy hujjatlar bo‘lib, unda sud organlarining qarorlari, dalillar, huquqiy asoslar va hukmlar aniq tartibda ifodalanadi. Bunday rasmiy va qat‘iy belgilangan nizomlarga ega bo‘lgan hujjatlarni tarjima qilish murakkabdir. 1900 yillar atrofida Tsyurixdagi advokat G. Cesana yuridik matnlarni so‘zma-so‘z (word-for-word) usulida tarjima qilish kerak degan nazariyani ilgari surgan. Huquqiy tarjimada an‘anaviy so‘zma-so‘z tarjimani qo‘llab-quvvatlagan Cesana qonunchilik matnlarini tarjima qilish bo‘yicha 3 ta yo‘riqnomani taklif qildi: so‘zma-so‘zlik, parafrazalarsiz(izohlashlarsiz) va hech qanday qisqartirishlarsiz. Qonunchilik matnining alohida so‘zlarini muqaddas ekanligiga qat‘iy ishongan Cesana qonunlar va kodekslarning so‘zma-so‘z tarjimasi muhim deb hisoblagan [2]. Ammo bu fikr noto‘g‘ri bo‘lganligi sababli ham bir qancha tanqidlarga uchragan. Yuridik hujjatlar, xususan sud qarorlari tarjimasida tarjimon quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor berishi kerak:

- So‘zma-so‘z tarjimaga suyanib qolmaslik: ayniqsa ikki yoki undan ortiq so‘zli terminlar tarjimasida;
- Tarjima qilayotgan terminlarning qonuniy ma‘nosi va qo‘llash sohasi: tanlangan so‘z aynan shu sohaga tegishlilikini aniqlash kerak. Buning uchun tarjimondan maxsus sohaviy bilim va malaka ham talab etiladi;
- Tarjima jarayonida neytrallikni saqlash: yuridik matnlar va sud qarorlari tarjimasi badiiy va publitsistik usullardan farqli ravishda har qanday hissiy ifodalar, subyektiv so‘zlar va badiiy bo‘yoqdorliklardan yiroq bo‘lishi, tarjima neytral holatda bo‘lishiga ahamiyat berish lozim.

Sud tarjimasida eng ko‘p uchraydigan xatolardan biri bu – so‘zma-so‘z tarjima qilishdir. Tarjimonlar ko‘p hollarda so‘zni o‘z ma‘nosi bilan tarjima qilib ketishadi, aynan yuridik sohaga mos keladimi, aynan shu sud jarayonlarida qo‘llash mumkin yoki yo‘qligini inobatga olishmaydi.

Masalan:

Ingilizcha termin Noto‘g‘ri tarjima To‘g‘ri tarjima

Conviction Ishontirish Sud tomonidan aybdor deb topish

Liability Javobgarlik hissi Huquqiy javobgarlik

Charge To'lov Ayblov

Defendant Himoyachi Javobgar (sudlanuvchi)

Masalan, defendant atamasi so'zma-so'z tarjima qilinganda himoyachi ma'nosini ifodalaydi, ammo, sud jarayonlarida asosan javobgar yoki sudlanuvchi ma'nosida keladi. Sud jarayonlarida himoyachi degan atama esa hech qachon defendant deb berilmaydi, balki advocate deb tarjima qilinadi.

Barcha terminal bir yoki ko'p so'zli bo'lgani kabi yuridik terminlar ham bir so'zli yoki ikki va undan ortiq so'zli bo'ladi. Ikki va undan ortiq so'zli terminlarni tarjima qilish jarayonida ayniqsa, so'zma-so'z tarjima umuman ish bermaydi.

Masalan: Sud qarori terminini tarjimon “court decision” deb emas “judgment” deb tarjima qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yana bir kata muammo bu – ekvivalent yetishmasligidir. Sud jarayonida ishlatiladigan barcha terminlarning ham muqobil ekvivalenti topilmasligi mumkin. Bunday vaziyatda tarjimon qiyinchilikka duch keladi.

Masalan:

o Plea bargain atamasi o'zbek huquq tizimida muqobil ekvivalentga ega emas. Bunday hollarda tarjimon izohlash usulidan foydalangan holda tarjima qiladi:

“sudlanuvchining aybini tan olishi evaziga yengilroq jazo olish kelishuvi” tarzida izohlab ketiladi.

o Habeas corpus atamasi ham o'zbek tilida muqobili yo'q va u “shaxsni asossiz ushlab turmaslik prinsipi. Rim huquqidan kelib chiqqan atama” tarzida izohlab tarjima qilinadi.

Terminologik nomuvofiqlik ham sud tarjimalarida uchraydigan muammolarning keng tarqalgan turidir. Bir matnda bir xil terminlarning turlicha ma'no ifodalab kelishi aynan shunga misol bo'ladi. Masalan, tepada aytib o'tgan “judgment” atamasi sud jarayonida “sud qarori” ma'nosini ifodalasa, boshqa yuridik matnlarda “qaror” yoki “hukm” sifatida berilgan bo'lishi mumkin. Bu holatda aynan jarayonga mos terminni tanlab, butun matn davomida shu termin izchil qo'llanilishi kerak.

Madaniy-huquqiy tafovutlar ham tarjima jarayonida muhim ro'l o'ynaydi. Har bir mamlakatning huquq tizimi har xil va o'ziga xos bo'lgani uchun, terminlarning huquqiy konteksti farq qiladi. Masalan, Equity law – adolat prinsiplari asosidagi qonun – bizning tizimda bevosita mavjud emas. Shunday hollarda tarjimon Modulation ya'ni moslashtirish usulidan foydalanadi. Tarjima jarayonida madaniy va leksik-semantik o'xshashliklarni hisobga olgan holda moslashtiriladi.

Terminologik xatolarni bartaraf etish yo'llari

Terminologik xatolarni bartaraf etish uchun tarjima jarayonida faqatgina so‘zning tarjimasiga emas, uning ma‘nosiga, qaysi sohada qo‘llanilishiga ahamiyat berish kerak va shu bilan birgalikda har ikkala davlatning qonun va mezonlariga mos keladigan ma‘nosini topib qo‘llash zarur. Ya‘ni:

- Kontekstual tahlil – terminlarni faqat lug‘aviy emas, balki huquqiy kontekstda tahlil qilish zarur. Masalan, charge so‘zi moliyaviy kontekstda “to‘lov”, huquqiy kontekstda “ayblov” ma‘nosini bildiradi.

- Yuridik lug‘atlar va glosariylardan foydalanish – tarjimon tarjima jarayonida oddiy ikki tilli lug‘atlardan ko‘ra ko‘proq izohli lug‘atlarlar va ensiklopediyalardan dan foydalangani ma‘qul. Masalan, Ijtimoiy-Siyosiy Terminlarning Qisqacha Izohli Lug‘ati, Yuridik terminlar ensiklopediyasi, Black’s Law Dictionary, Oxford Dictionary of Law kabi kitoblar juda ham foyda beradi.

- Izohli tarjima usuli – o‘zbek millati huquq tizimida muqobili bo‘lmagan terminlarni qisqa izohlash orqali tarjima qilish ham tarjima sifatini oshiradi. Ba‘zi atamalar tarjimada izohli yondashuvni talab qiladi. Bu ayniqsa, o‘zbek huquq tizimiga xos, boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili yo‘q bo‘lgan tushunchalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi [3].

Xulosa

Tahlillarga asoslanib gapiradigan bo‘lsak, tarjimon til sohasida ijodkor bo‘lishi kerak. Tarjima jarayonida tinglab tushunish, to‘g‘ri, aniq va tez tarjima qilish, so‘zlarni muqobilini topib har qanday kontekstda foydalana olish kabi mahoratlarga ega bo‘lish ijodkorlik bilan tengdir. Bundan tashqari tarjimon faqatgina tilni bilishi emas balki yuridik sohada ham chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishi lozim. Sud qarorlarini tarjima qilish ayniqsa huquqiy mas‘uliyat talab etadigan murakkab jarayondir. Har bir termin va ibora aniq huquqiy ma‘noga ega bo‘lib, bitta noto‘g‘ri tanlangan so‘z butun bir qarorni o‘zgartirib yuborishi hech gap emas. Tarjimon tarjima jarayonida har bir terminning ma‘nosini va qo‘llanilish sohasini yaxshilab o‘rganib chiqqan bo‘lishi, yuridik tizimlar farqini bilishi, madaniy tafovutlarga e‘tibor qaratishi lozim.

Kelajakda tarjimon uchun sohaviy bilimlarni oshirish maqsadida maxsus huquqiy lingvistika kurslari tashkil etilishi va yuridik terminlarning ikki tilli izohli lug‘atlari tuzilishi yuridik tarjimani yanada yuksaltiradi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy tarjima, aynan sud qarorlari tarjimalarida to‘g‘ri yondashuv va sifatli tarjima – bu nafaqat tarjimonning yutug‘i, balki butun millatning adolat shamchiroqchasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidova F.M. Yuridik terminlarning tarjimadagi muammolari va lingvosemantik xususiyarlari. – Andijon, Iqro jurnali. 2025.
2. Šarčević, S. New Approach to Legal Translation. – Kluwer Law International. 1997.
3. Asadov, M.T. 2021. “Fransuz-o‘zbek tarjimachiligi istiqbollari”. O‘zbekiston: til va madaniyat 1 (3): 125-134.
4. Rashidova, N. B. ACTIVE, COMMON WORDS-ARABISMS OF THE SPHERE OF EDUCATION IN THE UZBEK LANGUAGE.
5. Gozieva M. Legal Terminology and its Translation Challenges in Uzbek-English Context. – Journal of Legal Linguistics. 2021.
6. Yuridik atamalar va iboralar lug‘ati. – Toshkent, Adolat, 1993;
7. Batler V., Saidov A. Ruscha-o‘zbekcha-inglizcha yuridik lug‘at. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.